ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -8

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 8

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA UZVIYLIKNI TA’MINLASHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING O‘RNI

Tilavova Matlab Muhamedovna
Buxoro davlat pedagogika instituti professori
Jo‘rayeva Umida Axtamovna
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti
E-mail: mardonov-95xk@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida uzluksizlikni ta’minlash orqali bolalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini izchil rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari, xususan PISA, PIRLS va TIMSS dasturlarining ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni ochib berilgan. Mazkur dasturlar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada uzviylikni ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, uzviylik, uzluksizlik, ta’lim jarayoni, bilim va ko‘nikmalar, kompetensiyalar, ta’lim sifati, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyat, xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, ta’lim mazmuni, pedagogik integratsiya.

Annotation.This article analyzes the theoretical and practical aspects of ensuring continuity between preschool and primary education stages. It highlights the issues of the consistent development of children’s knowledge, skills, and competencies through continuity in the educational process. In addition, the role of international assessment programs, particularly PISA, PIRLS, and TIMSS, in improving the quality of education is discussed. Based on these programs, opportunities for improving educational content, developing a competency-based approach, and enhancing the effectiveness of pedagogical activities are identified. The article also provides practical recommendations for ensuring educational continuity.

Keywords: preschool education, primary education, continuity, lifelong learning, educational process, knowledge and skills, competencies, education quality, competency-based approach, pedagogical activity, international assessment programs, PISA, PIRLS, TIMSS, educational content, pedagogical integration.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты обеспечения преемственности между дошкольным и начальным образованием. Рассматриваются вопросы последовательного развития знаний, умений и компетенций детей через обеспечение непрерывности образовательного процесса. Также раскрывается роль международных оценочных программ, в частности PISA, PIRLS и TIMSS, в повышении

качества образования. На основе данных программ определяются возможности совершенствования содержания образования, развития компетентностного подхода и повышения эффективности педагогической деятельности. В статье также представлены практические рекомендации по обеспечению преемственности в образовании.

Ключевые слова: дошкольное образование, начальное образование, преемственность, непрерывность, образовательный процесс, знания и умения, компетенции, качество образования, компетентностный подход, педагогическая деятельность, международные оценочные программы, PISA, PIRLS, TIMSS, содержание образования, педагогическая интеграция.

KIRISH.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash bolalarning keyingi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki aynan shu davrda bola shaxsining asosiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalari shakllanadi.Maktabgacha ta’limda egallangan dastlabki bilim va hayotiy ko‘nikmalar boshlang‘ich ta’limda izchil davom ettirilmasa, bolalarda moslashuv qiyinchiliklari, o‘qishga qiziqishning pasayishi va bilimdagi uzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli ta’lim bosqichlari o‘rtasida uzluksizlikni ta’minlash muhim pedagogik vazifalardan biridir.O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonunida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari, bolalarni har tomonlama rivojlantirish hamda ularni boshlang‘ich ta’limga sifatli tayyorlash masalalari belgilab berilgan. Mazkur qonunda ta’limning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash muhim vazifalardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.Bugungi kunda pedagogik jarayonlarni takomillashtirish, uzviylikni yaratish va o‘quv jarayonini optimallashtirish masalalari dolzarbdir. Shu nuqtai nazardan, metodik vositalar, integratsiyalashgan yondashuv va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonida uzviylikni oshirish mumkin. Bugungi kunda ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, uning bosqichlari o‘rtasida izchillik va uzviylikni ta’minlashdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida, uning bilim olishga tayyorgarligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha ta’lim bola tafakkurining shakllanishi, ijodiy va bilish faoliyatining rivojlanishi bosqichi bo‘lsa, boshlang‘ich ta’lim esa bu

ISSN 3030-3907

jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida bola shaxsini yanada kengroq ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolaning bilish jarayonlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini ifoda etish, atrof-muhitni anglash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhimdir. Bu bosqichda yaratilgan bilim va ko‘nikmalar boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu ikki bosqich o‘rtasida mazmun, metodika va psixologik jihatdan uzviylikni ta’minlash dolzarb masalalardan biri sanaladi.Ta’lim jarayonida uzviylik deganda, ta’lim bosqichlarining maqsad va mazmun jihatidan bir-birini to‘ldiruvchi va davom ettiruvchi tarzda tashkil etilishi tushuniladi. Bunda maktabgacha ta’limda olingan bilim va ko‘nikmalar boshlang‘ich ta’limda tizimlashtiriladi, kengaytiriladi va mustahkamlanadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi va tarbiyachi o‘rtasidagi metodik hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bola maktabga qadam qo‘ygan paytda u ilgari egallagan bilimlar asosida yangi bilimlarni qabul qilishga tayyor bo‘lishi kerak.Uzviylikni ta’minlashda ta’lim jarayonining mazmuni bilan bir qatorda pedagogik yondashuv ham muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, dars jarayonida faol, ijodkor va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanishlari zarur. Shuningdek, o‘yin, amaliy mashg‘ulot, suhbat, mushohada va tajriba kabi usullarning davomiyligi ta’lim bosqichlaridagi mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Uzviylikni ta’minlashda kompetensiyaviy yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv bolalarning nafaqat bilim olishiga, balki olgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishiga ham e’tibor qaratadi. Natijada o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va kommunikativ ko‘nikmalar shakllanadi. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni samarali ta’minlash uchun nazariy yondashuvlar bilan birga amaliy faoliyat ham muhim ahamiyatga ega. Amaliy jarayonda bolalar uchun o‘quv faoliyati bosqichma-bosqich murakkablashib borishi lozim. Masalan, maktabgacha ta’limda o‘yin asosida harflar va tovushlarni o‘rganish, boshlang‘ich ta’limda esa ularni o‘qish va yozish ko‘nikmalariga aylantirish uzviylikning muhim ko‘rinishidir. Xuddi shuningdek, sanash va predmetlarni guruhlash ko‘nikmalari keyingi bosqichda matematik amallarni o‘zlashtirishga zamin yaratadi.Uzviylikni yanada aniq tasavvur qilish uchun quyidagi taqqoslashni keltirish mumkin:

NATIJA VA MUHKAMA. Maktabgacha ta’lim bosqichida bolalar o‘yin faoliyati orqali o‘rganadi, boshlang‘ich ta’limda esa bu jarayon rasmiy ta’lim shakliga o‘tadi. Tovush va harflar bilan tanishish savodxonlikka asos bo‘lsa, matematikada sanash ko‘nikmasi mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

ISSN 3030-3907

So‘nggi yillarda ta’lim sifatini baholash va rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, PISA, PIRLS va TIMSS kabi dasturlar ta’lim tizimidagi real natijalarni aniqlash va uni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ta’lim sifatini xalqaro miqyosda baholash jarayonlari ham uzviylikni ta’minlashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash orqali maktabgacha ta’limda shakllantirilgan nutq va tushunish ko‘nikmalarining darajasini aniqlash imkonini beradi. TIMSS esa matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarning uzluksiz rivojlanishini tahlil qiladi.Shuningdek, PISA dasturi o‘quvchilarning hayotiy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash darajasini o‘rganadi. Ushbu natijalar ta’lim tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro baholash natijalari asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish, o‘qitish metodikasini yangilash hamda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, uzviylikni ta’minlash ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, Finlandiya ta’lim tizimida maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yagona uzluksiz tizim sifatida qaraladi. Singapurda esa kompetensiyaviy yondashuv asosida bolalar erta yoshdan muammoli vaziyatlarni hal qilishga o‘rgatiladi. Shuningdek, PIRLS natijalari o‘qish savodxonligi uzviy ta’lim tizimida yuqori natija berishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ta’lim sifatini xalqaro darajaga olib chiqish, PISA, PIRLS hamda TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida samarali ishtirok etish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlari ta’lim sifatini baholashning muhim mezoniga aylanib bormoqda. Mazkur dasturlar o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish kompetensiyalarini ham aniqlash imkonini beradi. Shu sababli maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni xalqaro talablar asosida tashkil etish zamonaviy ta’limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashda 4K modeli muhim pedagogik asoslardan biri hisoblanadi. Uzviylik ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi izchillik va davomiylikni ifodalasa, 4K modeli ushbu jarayonda bolalarning kreativ fikrlash, kritik fikrlash, kommunikativlik va kooperatsiya kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarda kreativ fikrlash ijodiy o‘yinlar va amaliy

ISSN 3030-3907

mashg‘ulotlar orqali shakllantiriladi. Kritik fikrlash esa taqqoslash, mantiqiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali rivojlantiriladi. Kommunikativlik bolalarning erkin muloqot qilishi, fikr almashishi va nutqini rivojlantirish jarayonida namoyon bo‘ladi. Kooperatsiya kompetensiyasi esa jamoaviy o‘yinlar va hamkorlikdagi faoliyat orqali shakllanadi. Boshlang‘ich ta’limda ushbu kompetensiyalar o‘qish, yozish, matematik fikrlash va amaliy topshiriqlar orqali izchil davom ettiriladi. Natijada bolalarda bilimlarni amaliyotda qo‘llash, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu esa maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uzviylik tushunchasi va uning ahamiyati shundaki, ta’limdagi uzviylik bu ta’lim bosqichlarining maqsad, mazmun, metod va natijalar jihatidan o‘zaro bog‘liqligi, bir-birini to‘ldiruvchi va davom ettiruvchi jarayon ekanligini anglatadi. Maktabgacha ta’limdan boshlang‘ich ta’limgacha bo‘lgan uzviylik bolaning psixologik, aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini bir maromda davom ettirishga xizmat qiladi. Uzviylikni ta’minlashning metodik asoslari maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashda quyidagi metodik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi:

✓ Integratsion yondashuv: turli fanlar mazmunini o‘zaro bog‘lab, bolalarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirish;

✓ Faoliyatga asoslangan o‘qitish: bolalarning o‘yin, ijodiy va amaliy faoliyati orqali o‘rganishga yo‘naltirish;

✓ Differensial yondashuv: har bir bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish;

✓ ivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari: o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Uzviylikni ta’minlashda o‘qituvchi va tarbiyachining hamkorlik samaradorligi ko‘p jihatdan tarbiyachi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining hamkorligiga bog‘liq. Ular o‘quv dasturlari, bolalarning tayyorgarlik darajasi va psixologik holatini hisobga olib, birgalikda metodik reja tuzishlari zarur. Shuningdek, o‘tish davrida bolalar uchun maxsus moslashuv dasturlari ishlab chiqish ham katta ahamiyatga ega.

METODLAR. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashda amaliy topshiriqlar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Shu jihatdan muallif Jo‘rayeva Umida Axtamovna tomonidan yaratilgan “Qo‘g‘irchoqdan qo‘ng‘iroqqacha” nomli metodik qo‘llanmada berilgan topshiriqlar bolalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

Mazkur qo‘llanmada xalqaro baholash dasturlari — PISA, PIRLS hamda TIMSS talablariga mos topshiriqlardan foydalanilgan. Topshiriqlar bolalarda o‘qish savodxonligi, mantiqiy fikrlash, matematik tafakkur va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qo‘llanmada 4K modeli asosida kreativ fikrlash, kritik fikrlash, kommunikativlik va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiruvchi mashg‘ulotlar ham o‘rin olgan. Shuningdek, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan amaliy faoliyatlar orqali bolalarning mustaqil izlanishi va ijodiy yondashuvi rivojlantiriladi.

Jumladan, plastilin bilan ishlash, mantiqiy topshiriqlar, PISA, PIRLS, TIMSS ga onaltirilgan tpshiriqlar sanash, taqqoslash va ijodiy mashg‘ulotlar bolalarning mayda motorikasi, nutqi va tafakkurini rivojlantirish bilan birga, ularni boshlang‘ich ta’limga samarali tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Quyida shu kitob sahifa,topshiriqlaridan namunalar ko‘rishingiz mumkin:










ISSN 3030-3907



Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Bu uzviylik ta’lim bosqichlarining mazmun, metod va natijalar jihatidan uzluksiz bog‘liqligini ta’minlab, bolaning rivojlanishini bir maromda davom ettirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, uzviylikni ta’minlashda integratsion, faoliyatga asoslangan, differensial va rivojlantiruvchi ta’lim yondashuvlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tarbiyachi va o‘qituvchi hamkorligi hamda maktabga moslashuv dasturlari bu jarayonni yanada samarali qiladi.Xalqaro baholash dasturlari esa uzviylikni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Jumladan, PIRLS maktabgacha davrda shakllangan o‘qish va tushunish ko‘nikmalarining natijasini, TIMSS matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarning davomiyligini, PISA esa o‘quvchilarning bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash darajasini baholaydi.

Ushbu natijalar asosida ta’lim mazmuni takomillashtiriladi, o‘qitish metodlari yangilanadi va pedagoglar malakasi oshiriladi. Natijada maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylik mustahkamlanadi hamda ta’lim sifati yaxshilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil.

ISSN 3030-3907

3. Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. Middle European Scientific Bulletin,
4. Saidova M.J "Xalqaro baholash tizimi" darslik Buxoro 2024
5. Abdullayeva N. Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
6. Fayziyeva N.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida fanlararo integratsiyaning o'rni. // "Pedagogik ta'lim" ilmiy jurnali. – 2022. –
7. Hasanov B. Texnologiya fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: "Ilm ziyo", 2023.
8. Karimova V. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
9. Jo'raeva N., Abdullayeva M. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi". — Toshkent, 2022.
10. Tilavova M.M va Jo'rayeva U.A "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida uzviylikni ta'minlash metodikasini takomillashtirish" ilmiy maqola 2025.

ISSN 3030-3907